



UDK: 372.881.

Gulfura TASHMETOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi katta o'qituvchisi
Elektron pochta: gulfura.sh@gmail.com

TTA dotsenti Jo'rayev A. X. taqrizi asosida

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MEDIATEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KASBIY-NUTQIY MADANIYATINI OSHIRISH METODIKASI (INGLIZ TILI MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada tibbiyotda til o'qitish metodikasida mediatexnologik nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asosiy masalalardan bo'lib, Tibbiy OTM talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini tajribalar asosida til o'rganishga qo'yilgan aniq talablar orqali (tinglab tushunish), (gapirish), (o'qish) va (yozish) malakalari shakllantiriladi. Tibbiyotda talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishda ingliz tilini o'qitish kompetensiyasini takomillashtirish mediatexnologik yondashuv zaruriyati maqolamiz mohiyatini belgilab beradi. Xorijiy tilni matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasi, talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishda, xorijiy til ta'limining bugungi mediatexnologik yondashuvlarga mos ravishda eng murakkab bo'lib turgan matn ustida ishlash, uni o'qiy olish, tushuna olish va, eng muhimi, matn yarata olish ko'nikmalarini integratsiya qilgan holda mediatexnologik rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi maqolamizda belgilab otilgan.

Kalit so'zlar: tibbiyot, kasbiy-nutqiy madaniyat, kompetensiya, mediatexnologik yondashuv, o'qitish metodikasi, ko'nikma, pedagogik mexanizmi, xorijiy til.

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА НА ОСНОВЕ МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ (ПРИМЕР АНГЛИЙСКОГО)

Аннотация

В данной статье развитие медиатеchnологических навыков говорения в методике обучения языкам в медицине является одним из основных вопросов (формируются зима) и (письмо) навыки. Необходимость медиатеchnологического подхода к повышению компетентности преподавателя английского языка в медицине для повышения профессионально-речевой культуры студентов-медиков определяет суть нашей статьи. Методы комплексного обучения иностранному языку через текст, с целью повышения профессиональной и речевой культуры учащихся, работать над наиболее сложным текстом в соответствии с современными медиатеchnологическими подходами к иноязычному обучению, читать, понимать и, самое главное, в нашей статье выделена целесообразность разработки технологии развития медиатеchnологий путем интеграции навыков создания текста.

Ключевые слова: профессионально-речевая культура, компетентность, медиатеchnологический подход, методика обучения, умения, педагогический механизм, иностранный язык.

METHODOLOGY OF DEVELOPING PROFESSIONAL AND SPEECH CULTURE OF STUDENTS OF MEDICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON THE BASIS OF MEDIATECHNOLOGY (EXAMPLE OF ENGLISH)

Annotation

In this article, the development of media-technological speaking skills in the methodology of language teaching in medicine is one of the main issues. 'winter) and (writing) skills are formed. The need for a media-technological approach to improve the competence of teaching English in medicine to enhance the professional and speech culture of students in medicine determines the essence of our article. Methods of integrated teaching of a foreign language through the text, in order to improve the professional and speech culture of students, to work on the most complex text in accordance with today's media-technological approaches to foreign language education, to read, understand and, most importantly, The expediency of developing media technology development technology by integrating text creation skills is lighted in our article.

Key words: professional-speech culture, competence, media-technological approach, teaching methods, skills, pedagogical mechanism, foreign language.

Kirish. Jahonda talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini til o'rganishni takomillashtirish asosida mediatexnologik yondashuvdan foydalanish, integrativ ta'lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga tibbiyot talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarini oliy pedagogik ta'lim mazmuniga keng tatbiq etish, talabalarni samarali muloqotga tayyorlash tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda til o'qitish metodikasi keyingi yillarda bir qator yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Buning natijasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida muayyan rivojlanishlar, islohotlar sodir bo'lmoqda. Zero, talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini til muloqot vositasi sifatida barcha yo'nalishlarning taraqqiyotiga ta'sir

qiladi, shuning uchun ham uni o'qitish masalasi doimo dolzarb hisoblanadi. Bugun dunyo til o'qitish metodikasiga andoza bo'layotgan Xorijiy til ta'limi yutuqlaridan aksariyat mamlakatlar samarali foydalanib kelmoqda. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, tibbiyotda til o'qitish metodikasida mediatexnologik nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asosiy masalalardan bo'lib, uni amalga oshirish tibbiyot talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatiga ko'proq bog'liq bo'lmoqda. Jahonda ingliz, fransuz, nemis va boshqa rivojlangan xorijiy tillarni o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini mazmuniga, foydalanilganlik darajasiga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida unumli foydalaniladi. Tibbiyot tajribasida talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini o'zaro muloqotning mediatexnologiyalar asosida samarali bo'lishiga qaratiladi.

Amalda foydalaniladigan talabalarning kasbiy-nutqiy madaniyatini avvaldan belgilangan ma'lum mezonlar asosida shakllantiriladi.

Dunyoda integrativ ta'lim (Blended Learning), mediatexnologik yondashuv asosida talabalarning kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirish masalasiga doir ilmiy munozaralar va forumlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, talabalarning kasbiy-nutqiy madaniyatini ta'limning til o'rganish kommunikativ modelini takomillashtirish hamda interfaol muloqot ko'nikmasini shakllantirish jarayonida akmeologik va mediatexnologik yondashuvning o'ziga xosliklarini aniqlashtirish, kommunikativ hamkorlikni tashkil etishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish hamda samarali foydalanish, tibbiy oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa tibbiyot talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini mediatexnologik yondashuvni shakllantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, integrativ-fasilitatsion ta'lim muhitini yaratish orqali kasbiy faoliyatga kommunikativ yo'nalganlikni tarkib toptirish modelini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda ham xorijiy tillarni o'qitishda talabalarning kasbiy-nutqiy madaniyatini mediatexnologik metodikasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars jarayonida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish nutqiy kompetensiyalarning rivojlanishiga olib kelishi ko'zda tutilmoqda. Tibbiy OTM talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini tajribalar asosida til o'rganishga qo'yilgan aniq talablar orqali (tinglab tushunish), (gapirish), (o'qish) va (yozish) malakalari shakllantiriladi. Xorijiy tillarni o'qitishda mazkur yondashuvdan biroz ijodiyroq foydalanish maqsadga muvofiq, bizningcha. Chunki talabalar tilning tashuvchilari sifatida muayyan nutqiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan holda oliy o'quv yurtiga keladilar. Talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini xorijiy tildan (ular tilning tashuvchilari bo'lgani uchun) ba'zi ko'nikmalargina shakllantiriladi, asosan, ulardagi mavjud ko'nikmalar rivojlantiriladi. Ayniqsa, talabalar xorijiy tilida matn yoki suhbatni tinglab tushunadi, o'qiy oladi, gapira oladi va yoza oladi. Bunday vaziyatda xorijiy til o'qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarda eshitganlarini to'g'ri tushuna olish, adabiy tilda ravon va mantiqan izchil gapira olish, matni o'qib tushuna olish hamda to'g'ri va mazmunli yoza olish ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Bu mas'uliyatli vazifani, albatta, talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini mediatexnologik takomillashtirilgan o'quv topshiriqlari orqali amalga oshirish mumkin. Shu ma'noda tibbiy ta'limda xorijiy tildan talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini oshirish masalasi nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Respublikamizda bo'lajak shifokorlarning qobiliyati va malakalarini rivojlantirish, pedagogik faoliyatga taktik va strategik yo'nalganlikni tarbiyalash, talabalarining tibbiy ta'lim faolligini oshirishga ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, tibbiy ta'lim amaliyoti talabalarda kasbiy nutqiy kompetensiyani rivojlantiruvchi talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini mediatexnologik yondashuv asosida oshirish, kommunikativ kompetentlikni oshirish omillari va mezonlarini aniqlashtirish, konseptual modeli va amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Davlat ta'lim standartlari va milliy baholash mezonlariga muvofiq tarzda xorijiy til o'qitishda savol, mashq va topshiriqlar mazmunini mediatexnologik tanqidiy o'rganish, ularni nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va baholash nuqtai nazaridan tavsiflash va tasniflash zarurati mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizda keyingi yillarda talabalarining kasbiy-nutqiy madaniya-

tini oshirishda xorijiy til o'qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, xorijiy til o'qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borilgan.

Ta'kidlash joizki, talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishda xorijiy til o'qitish metodikasiga turli davrlarda filolog olimlar ham dastur, darslik mualliflari sifatida o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Mamlakatimizda xorijiy tilni o'qitish masalalari G.X.Bakieva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, T.K.Sattarov, D.U.Xoshimova kabi tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan.

Ingliz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha F.M.Rashidova, F.Sh.Alimov, B.G.Kulmatov, I.M.Tuxtasinov, M.X.Gulyamova kabilar xorijiy til ta'limi maqsadi va mazmunini ishlab chiqqan professor G.X.Bakieva, g'oyalariga tayanib, xorijiy tili o'qitishda yangi – ortiqcha grammatizmdan voz kechib, talabalarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, lug'at va matn asosida xorijiy tilni, o'quvchi tafakkuriga singdirish, o'quvchini turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash yo'nalishni boshlab berdi.

MDH mamlakalarida ingliz tilini o'qitish bo'yicha tadqiqotlar N.V.Barishnikov, V.V.Bezrukova, M.Z.Biboletova, N.N.Trubaneva, I.L.Bim, T.P.Bludova, N.D.Galskova, N.I.Geiz, G.M.Frolova, G.A.Gromova, T.A.Davidova, Z.R.Devterova, N.V.Eluxina, T.A.Zayseva, G.V.Zaxarova, I.A.

Tibbiyotda talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishda ingliz tilini o'qitish kompetensiyasini takomillashtirish mediatexnologik yondashuv zaruriyati tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi. Xorijiy tilni matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasi, talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishda, xorijiy til ta'limining bugungi mediatexnologik yondashuvlarga mos ravishda eng murakkab bo'lib turgan matn ustida ishlash, uni o'qiy olish, tushuna olish va, eng muhimi, matn yarata olish ko'nikmalarini integratsiya qilgan holda mediatexnologik rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb bildik.

Rus pedagoglari S.L.Rubenshteyn[1] J. A. Ponomarev[2], A.N.Leontev[3], kabilar o'quv topshiriqlari va ularning didaktikada tutgan o'rni, vazifalari haqida kuzatishlar olib borgan. Jumladan, Leontev "nutqiy madaniyat" tushunchasini quyidagicha xarakterlaydi: "Nutq—muayyan shartlarga asoslanib, kasbiy salohiyatni nomoyon etuvchi omil, oldinga qo'yilgan maqsaddir".

Jahon pedagogikasida talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishda metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan Avstraliyalik olim, professor Jak Richards[4] maxsus shug'illangan. Shuni ta'kidlash joizki, g'arb pedagogikasi amaliylikka asosiy e'tiborni qaratadi. Dastlabki pragmatik g'oyalar amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyui tomonidan ishlab chiqilgan.

Xorijiy tajribalardan o'z vaqtida xulosa chiqargan F.Sh.Alimov, B.G.Kulmatov, kognitiv-pragmatik yondashuvni O'zbekiston ta'lim tizimiga birinchi bo'lib istiqlolning dastlabki yillarida olib kirgan edi. Mazkur yondashuv o'z vaqtida qo'llab-quvvatlanmadi. Shuning uchun hanuzgacha xorijiy til ta'limida amaldagi talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishda kutilgan samarani bermay kelmoqda. Bugungi pedagogik, lingvodidaktik sharoit o'quv topshiriqlarini mediatexnologik yondashuv asosida takomillashtirishni taqozo qiladi, shuningdek, talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishda B.Blum taksanomiyasini ham inobatga olish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Tibbiy oliy ta'lim tizimida talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatni oshirishning bugungi ahvolini o'rganish va pragmatik mazmundagi xorijiy til ta'limidagi o'rni mediatexnologik belgilash; darsliklardagi

o'quv materialining DTS hamda dastur talablariga mosligini qiyosiy o'rganish, shuningdek, ularni o'qitish bilan bog'liq muammolarining sabablarini mediatexnologiyalar asosida aniqlash va yechimlar taklif qilish; talabalarning kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirish orqali talabalarda tinglab tushunish, gapirish, o'qib tushunish va yozish (savodli va mazmunli matn tuzish) ko'nikmalarini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish metodlarini ishlab chiqish; fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmun, usul, vositalarini ishlab chiqishni mediatexnologik takomillashtirish; tibbiy oliy ta'limda talabalarning kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishning qulay va amaliy ahamiyatga ega metod, usul va texnologiyalarni tanlash; ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarini tajriba orqali darsliklar mazmunida, xorijiy til darslarida sinab ko'rish va olingan xulosalarni umumlashtirish iborat.

Tahlil va natijalar.

- xorijiy tilni pragmatik asosida o'qitish, talabalarning kasbiy-nutqiy madaniyati mediatexnologik yondashuv asosida oshiriladi va nutqiy ko'nikmalar rivojlanib, natijada talabalarning o'qish savodxonligi muayyan darajada oshgani aniqlanadi;

- talabalarning kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishning vazifaviy farqlanishi belgilab olingani sababli fikrlashga, ularining kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishga yo'naltirilishi va shu bilan birga shakllangan bilim ko'nikma va malakalarni sinash vazifasini ham bajarishi asoslanadi;

- tibbiy oliy ta'limda talabalarning "kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirish" tushunchalariga, ma'no-mohiyatiga ko'ra pedagogik, psixologik va lingvodidaktik jihatdan yangicha ta'rif berish, mediatexnologik qo'llanilish o'rinlari, bajaradigan vazifalariga ko'ra tasniflanadi;

- xorijiy tildan talabalarning kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishda matn bilan ishlashda matnga, suhbatdoshga vaziyatdan kelib chiqib murojat qilishning darajalari aniqlanadi, savol tuzishga kognitiv-pragmatik usulda yondashish tavsiya qilinadi;

- tibbiy oliy ta'limda tinglab tushunish ko'nikmasi bilan birga talabada muloqot vaziyatiga ko'ra murojaat qilish, gapirish malakasi ham baravar rivojlanishi lozimligini nazarda

tutib, talabani to'g'ri va mantiqli savol berishga o'rgatishning mediatexnologik usul va vositalari ishlab chiqiladi;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: tibbiy oliy ta'lim tizimining xorijiy til uchun maxsus talabalarining kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishning tizimli "Xorijiy til" darsliklari mazmunida amaliyotga joriy etiladi;

tibbiy oliy ta'limda xorijiy tilni o'qitish orqali talabalarda xorijiy adabiy til, adabiy talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, tibbiy terminologik hamda imloviy savodxonlik, so'z boyligini oshirish va mustaqil ishlay olish kabi nutqiy ko'nikmalarni kompleks shakllantirish, talabalarning kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishning mediatexnologiyasi ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilinadi; talabalarning xorijiy til bo'yicha kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishga doir ko'nikma va malakalari rivojlantirilgan, dars jarayoniga pragmatik yondashuvga asoslangan kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirish metodikasi joriy qilinadi;

Tadqiqot natijalaridan talabalarning kasbiy-nutqiy madaniyatini oshirishning mediatexnologik kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi DTS va o'quv dasturlari, shuningdek, darsliklar yaratishda foydalaniladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'mida shuni ta'kidlash joizki qo'llanilgan tadqiqot usullari va ilmiy-nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalarga aloqadorligi, keltirilgan tahlil hamda tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, bilan izohlanadi. Shu bilan birga, pedagogika va ta'lim tarixini o'rganishda, ingliz tili o'qitish metodikasini takomillashtirishda, ingliz tili fonetikasining ta'limda tutgan o'rini belgilashda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur dissertatsiyada aks etgan nazariy qarashlar shu yo'nalishdagi yangi tadqiqotlar uchun manba sifatida xizmat qiladi.

Maqolada ilgari surilgan g'oyalar, nazariy qarash va amaliy tavsiyalar "Ingliz tili" darsliklari, o'quv qo'llanmalar yaratishda hamda ma'ruza matnlari tayyorlashda manba bo'la oladi. Tibbiy OTMn ing barcha fakultetlarida "Ingliz tili" fanidan tibbiy matnlar tuzishda material bo'lib xizmat qilishi, tibbiy oliy ta'lim talabalariga ingliz tilini yanada chuqurroq o'qitishda muhim qo'llanma vazifasini o'taydi.

ADABIYOTLAR

1. Рубенштейн С.Л. Проблемы общей психологии. – М.: Педагогика, 1976. -416 с.
2. Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогика, 1976. -280 с.
3. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. -576 с.
4. Джон Дьюи. Общество и его проблемы John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Дж. Дьюи. Общество и его проблемы. — Перевод с английского: И. И. Мюрберг, А. Б. Толстов, Е. Н. Косилова. — М., 2002.
5. Розыков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьников (на материалах гуманитарных предметов). Автореферат дисс...док. пед. наук. – Тбилиси, – 1986. -50 с.
6. Розыков О.Р. ва бошқалар. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. -256 б. Краткий педагогический словарь. – М.: 1984
7. <https://www.professorjackrichards.com/mother-tongue-teaching-vs-foreign-language-teaching/>